

## MOLIYAVIY NATIJALAR VA MOLIYAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Mirzayev Umidjon Mirzaxmedovich

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14683802>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada moliyaviy barqarorlik tushunchasi, uning mazmuni, mavzuning dolzarbligi, ilmiy tadqiqotlarda tushunchaga berilgan ta'riflar, moliyaviy natijalar va moliyaviy barqarorlikni tahlil etish ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy tahlil, moliyaviy natijalar, moliyaviy holat tahlili, moliyaviy barqarorlik tahlili.

Bugungi kunda moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish va sharhlash bilan bog'liq muammolar tobora ko'proq aniqlanmoqda. Gap shundaki, moliyaviy tahlil metodologiyasi XX-asrning so'nggi o'n yilligida, rejalashtirilgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida moliyaviy menejment metodologiyasi bilan bir qatorda mamlakatimiz tomonidan "import qilingan". Giperinflyatsiya va yangi usullarni qo'llash tajribasining etishmasligi sharoitida nisbatlar tahlili korxonalarining moliyaviy holatini, shu jumladan moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda asosiy usul bo'ldi. Agar tahlilning boshida likvidlik, aylanma va rentabellik bo'yicha bir nechta savollar bo'lsa, bir vaqtning o'zida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari bo'yicha ko'plab savollar paydo bo'ldi [2].

Darhaqiqat, moliyaviy barqarorlik koeffitsientlarining aksariyati mohiyatan bir xil narsani, ya'ni o'z kapitalining qarz kapitaliga nisbatini tavsiflaydi [1]. Xo'sh, nega ular juda ko'p? Bu savolga javobni moliyaviy menejment beradi, ya'ni moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga nafaqat moliyaviy holatning xususiyatlari, balki uni boshqarish ko'rsatkichlari sifatida qaralganda savol aniq bo'ladi.

M.P.Eshov tadqiqotiga binoan "Moliyaviy barqarorlik korxona daromadlari xarajatlaridan barqaror ortiq ekanligidan, korxona-ning pul mablag'larini erkin manyovrlash va ulardan samarali foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish uzluksiz jarayonidan dalolat beradigan tavsifnomadir. Moliyaviy barqarorlik ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati jarayo-nida shakllanadi va korxona umumiy barqarorligining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi" [3].

Z.O.Axrorov va boshqalarning fikriga ko'ra, "korxonalarining moliyaviy barqarorligi darajasi investorlar va kreditorlarning korxonaga kapital qo'yilmalarni qo'yish bo'yicha qarorlarni qabul qilishda qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish masalasi korxonalar uchun dol-zarbdir" [1].

Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya'ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir [3]. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta'minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi.

Moliyaviy tizim, qachonki banklar, boshqa kredit tashkilotlari va moliya bozorlari uy xo'jaliklari va tadbirkorlik sub'yektlariga bir maromda ishlayotgan tizimning keskin sustlashishiga yo'l qo'ymasa, iqtisodiyotdagi ishtiroki va uning o'sishi uchun zarur moliyaviy investisiyalar taqdim eta olsagina barqaror hisoblanadi [2]. Aks holda nobarqaror tizimda iqtisodiy shoklar real iqtisodiyotga noxush ta'sir ko'rsatishi, kreditlashni izdan chiqarishi va

kutilganidan ziyod xatarga olib kelishi, bandlikning qisqarishi va iqtisodiy faollikni susaytirishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlikning mohiyati moliyaviy resurslarni samarali shakllantirish va oqilona foydalanish bilan ifodalanadi. Moliyaviy barqarorlik xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning istiqbolli to'lovga qobiliyatlili-gini ifodalaydi. Muayyan muddat uchun moliyaviy barqarorlikni tahlil etish o'z va qarz mablag'larini samarali boshqarayotganligini aniqlash imkonini beradi. Bu borada o'z va qarz mablag'larining holati xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning strategik rivojlanish maqsad va vazifalariga mos ekanligini o'rganish lozim.

Moliyaviy barqarorlik tahlilini quyidagi bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

#### Birinchi bosqich

- Moliyaviy barqarorlik tahlilining maqsadi, vazifalari, ob'yekti, sub'yekti, metodi, zarur axborotlar, tahlilning davomiyligi, tahlilning natijalarini rasmiylashtirish tartibi belgilanadi

#### Ikkinchi bosqich

- Tahlil uchun zarur axborotlar yig'iladi, ularning to'g'riligi tekshiriladi, o'rganiladigan ko'rsatkichlar taqqoslama holatga keltiriladi.

#### Uchinchi bosqich

- Moliyaviy barqarorlik tahlili amalga oshiriladi, moliyaviy barqarorlik darajasiga ta'sir etadigan omillar aniqlanadi va ularning ta'siri baholanadi

#### To'rtinchi bosqich


- Moliyaviy barqarorlik tahlili natijalari umumlashtiriladi va rasmiylashtiriladi

#### Beshinchi bosqich

- Tahlil natijalari asosida moliyaviy barqarorlik darajasini oshirishning ichki va tashqi imkoniyatlari aniqlanadi va tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Moliyaviy nobarqarorlik sharoitida moliya tizimi iqtisodiyot uchun zarur moliyaviy xizmatlarni taqdim eta olmaydi. Masalan, yirik moliya tashkilotidagi qiyinchiliklar moliyaviy nobarqarorlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, bitta muassasadagi muammolar

banklararo operatsiyalar tufayli tizimning bir-biriga o'zaro qattiq bog'langan boshqa tashkilotlariga ham tarqalishi mumkin. Muassasalarning umumiy faoliyati butun moliya tizimi uchun xavfni, ya'ni tizimli xavfni yuzaga keltirishi, ishonchli bo'lib tuyulgan alohida tashkilotni ham moliyaviy nobarqarorlikka olib kelishi mumkin.



Moliyaviy barqarorlik tahlili moliyaviy holat tahlili, to'lovga qobiliyatlilik tahlili moliyaviy barqarorlik tahlilining tarkibiy elementi hisoblanadi.



Bu esa o'z navbatida, to'lovga qobiliyatlilik moliyaviy barqarorlik darajasiga, moliyaviy barqarorlik darajasi korxona moliyaviy holatiga ta'sir etishini anglatadi. Shuningdek, moliyaviy barqarorlik tahli-li faqatgina moliyaviy hisobotlarda ifoda-langani axborot asosida amalga oshirilgan ho-latda alohida tarmoqlar bo'yicha metodikalar-ni yaratish zarurati mavjud emas.

Shunday qilib, moliyaviy barqarorlik va uni tahlil qilish markaziy banklar hamda moliya tizimini tartibga soluvchi organlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bank sektori O'zbekiston moliya tizimining eng muhim bo'g'ini bo'lganligi sababli, uning barqarorligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Markaziy bank bank tizimidagi o'zgarishlarni kuzatib boradi va baholaydi, shuningdek, tizimli xavflar to'planishini kamaytirish va bank tizimining barqarorligini ta'minlash choralari ko'rib boradi. Markaziy bank yiliga ikki marta Moliyaviy barqarorlik sharhini chop etadi, unda bank tizimining barqarorligi, makromoliyaviy zaiflik va xatarlar tahlil qilinadi va baholanadi. Ushbu sharhni chop etishdan ko'zlagan asosiy maqsad – jamoatchilik xabardorligini hamda bu sohada Markaziy bankning shaffofligi va hisobdorligini oshirishdan iborat.

### References:

1. Ахроров З.О., Жалилов Ш. Корхоналарда молиявий барқарорликни таъминлаш масалалари. Рисола. – Самарқанд. <http://www.lib.jizpi.uz>
2. Валиева Н. А. (2024). Сущность и проблемы анализа финансовой устойчивости

коммерческого предприятия. Концепт, (1), 116-120.

3. Ражабов С. Молиявий барқарорлик тушунчасининг назарий асослари ва унга таъсир қилувчи омиллар таҳлили. // Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 2, April 2023. ISSN: 2181-1016.